

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Қозимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna ИККИНЧИ ЈАҲОН УРУШИ YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Normurodov D.R.

«Arxeologiya va etnologiya» kafedrası dotsenti, PhD

O‘zbekiston Milliy universiteti

d.r.normurodov@mail.ru

SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA

ANNOTATSIYA

Maqola Samarqand viloyati Kattakurg‘on tumani “Jizmonsoy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan topilgan 11 ta tanganing tavsifi va ilmiy tahliliga bag‘ishlangan. Ushbu tangalar majmuasida turli davr va mintlarga oid namunalar mavjud bo‘lib, ulardan biri 1085-yilda Shimoliy Xitoydagi Song sulolasi (960–1279) tomonidan zarb qilingan, qolganlari esa quyidagi hijriy 526-yil (milodiy 1132) Samarqandda, 754-yil (milodiy 1353–1354) Xorazmda, 785-yil (milodiy 1383–1384) Samarqandda, 813-yil (milodiy 1410–1411) Samarqandda, 819-yil (milodiy 1416–1417), 823-yil (milodiy 1420–1421) Samarqandda yillarda ishlab chiqarilganligi, qolgan uchta tanganing zarb sanasi va joyini aniqlashga muvaffaq bo‘lmaganni qayd qilingan. Ushbu numizmatik material Samarqand viloyati hududida Qoraxoniylar sulolasi davridagi tanga zarb qilish an‘analarini, mazkur mintaqada yashagan aholi va Shimoliy Song imperiyasi o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni, Oltin O‘rda xoni Jonibek davridagi pul ishlab chiqarish siyosatini, Amir Temur va Temuriylar (xususan, Shohrux Mirzo hamda Mirzo Ulug‘bek) davridagi mis tanga zarb qilishdagi islohotlarni, shuningdek, Muhammad Shayboniyxon davridagi tanga tanqisligini bartaraf etishga qaratilgan pul islohotlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo hududidagi pul muomalasi tarixi, davlatlararo savdo aloqalari va tanga zarb siyosatidagi uzluksizlik hamda o‘zgarishlarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Samarqand, Jizmonsoy, Jonibek, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, taga, mis, fulus, hijriy yil.

KIRISH

Markaziy Osiyo hududi, xususan, Samarqand viloyati qadimdan buyon boy tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lib, bu yerda topiladigan numizmatik materiallar o‘tmishdagi davlat tuzilmalari, iqtisodiy aloqalar, savdo-sotiq yo‘llari va pul muomalasi tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Samarqand viloyati Kattakurg‘on tumani “Jizmonsay” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan topilgan 11 dona tanga majmui ana shunday qimmatli topilmalardandir. Ular shu mahallada yashovchi, hozirda O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti “Arxeologiya” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs kechki (rus) guruhi talabasi Vohidjon Xo‘rozboy o‘g‘li Abdusalomov tomonidan mahallaaning turli joylaridan topgan va ulardan 6 donasi O‘zbekiston fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlar muzeyiga (1, 3-4, 6-8-rasmlardagi tangalar), 5 donasi esa O‘zbekiston Respublikasi “Qurolli kuchlar muzeyi”ga topshirilgan. Ushbu tangalardan bir donadi qoraxoniylar sulolasi (XI asr), bir donasi Oltin O‘rda davlati (XIV asr), bir donasi Amir Temur va uch donasi

temuriylar imperiyasi (XIV–XV asrlar) hamda bir donasidagi qayta zarb Shayboniylar davri (XVI asr boshlari) pul ishlab chiqarish an'analarini aks ettiradi. Majmuada bir dona Song imperiyasi (Shimoliy Xitoy) tangasi mavjudligi esa mazkur hudud aholisining uzoq mintaqalar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari mavjudligidan dalolat beradi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

“Jizmonsoy” mahalla fuqarolar yig'ini hududidan topgan tangalar yomon holatda saqlanganligiga qaramay o'zining qiziqarliligi, turli davrlarga oidligi va har biri alohida turdagi tangalardan iboratligi bilan katta qiziqish uyg'otadi. Bu tangalar quyidagicha tavsifga ega:

1-tur. 1085-yil Shimoliy Xitoydagi Song (960-1279-yillar) sulolasi tomonidan ishlab chiqarilgan, o'rtasi kvadrat teshikchali tanga. Diametri – 25 mm, og'irligi – 3,30 gr, metali – bronza(1-rasm).

Oldi tomoni. O'rtasidagi kvadrat teshikchaning to'rtta tomoniga to'rtta xitoycha iyeroglif tushirilgan (Shao Sheng Yuan Bao / 紹聖元寶):

Orqa tomoni. Tekis ya'ni, hech qanday belgi yoki bezaklar tushirilmagan.

2-tur. Dirham. Hijriy 526 (milodiy 1132)-yil Samarqandda zarb qilingan. Diametri – 23 mm, og'irligi – 1,90 gr, metali – mis. O'rta qismidan biroz chetrog'ida ip o'tkazib osib yurishga mo'ljallangan teshikchasi (diametri – 3-4 mm) bor (2-rasm).

Oldi tomoni. O'rta maydonidagi halqa shaklidagi hoshiya ichiga uch qator va tanganing cheti ya'ni, hoshiyaning tashqi aylanasi bo'ylab ko'fiy (arab grafikasi) xatidagi yozuv tushirilgan. O'rta maydonida saqlangan “al xoqon” yozuvi quyidagicha yozilgan:

(o'rta qismida)	
	(“al xoqon – الخاقان”)
	
?	

Orqa tomoni. O'rta maydonidagi halqa shaklidagi hoshiya ichiga uch qator va tanganing cheti ya'ni, hoshiyaning tashqi aylanasi bo'ylab ko'fiy (arab grafikasi) xatidagi yozuv tushirilgan. Ulardan o'rta qismida saqlangan ikki qadordagi “al xoqon Muhammad”, chetidagi “besh” yozuvi quyidagicha yozilgan:

(o'rta qismida)	
	(“al xoqon – الخاقان”)

محمد	(“Muhammad – محمد”)
?	

(chetida)	
خمسم	(“hamsamoya (besh yuz) – خمسمائة”)

3-tur. Pul. Hijriy 754 (milodiy 1353-1354)-yil Xorazmda zarb qilingan. Diametri – 28 mm, og‘irligi – 6,11 gr, metali – mis (3-rasm).

Old tomoni. To‘rt burchagi tugun (yurakcha) shaklida birlashgan kvadrat hoshiya ichiga sherning chapga qarab yo‘nalayotgan qiyofasi tasvirlangan bo‘lib, uning bel qismidan yuqoriga ko‘tarilib nur taratayotgan quyoshning yarmi ko‘ringan (quyosh fonidagi sher tasvirli). Sherning og‘zi biroz ochilgan, quloqlari tik, uzun dumi pastga qayrilib orqa oyoqlarining o‘ng tomonidan biroz ichkariga o‘tgan. Sherning ko‘krigidan oldinda va chap oyog‘ining pastida uchlari jingalak bo‘lib qayrilgan bezak chizilgan. Hoshiyaning tashqi to‘rt tomonida yonlamasiga arab harflari(suls xati)da tanganing zarb qilingan joyi so‘z bilan, zarb qilingan hijriy yili raqamda quyidagicha tushirilgan:

ضرب	(“zarb – ضرب” – hoshiyaning o‘ngida)
خوارزم	(“Xuorazm – خوارزم” – hoshiyaning ustida)
في سنة	(“fy sana – في سنة” – hoshiyaning chapida)
٧٥٤	(“754 – ٧٥٤” – hoshiyaning tagida).

Orqa tomoni. Atrofi bezalgan sakkiz yaproq shakldagi hoshiya ichiga pastdan yuqoriga qarab o‘qiladigan “Joni Xon, Adolatli Sulton” yozuvi arab harflari(suls xati)da quyidagicha tushirilgan:



السلطان	(“al sulton – السلطان”)
العادل	(“al hodil – العادل”)
جانی خان	(“Joni xon – جانی خان”)

4-tur. Fulus. Hijriy 785 (milodiy 1383-1384)-yilda Samarqandda zarb qilingan. Diametri – 24x25 mm, og‘irligi – 5.64 gr. Bu tanga tarkibining 93,89 % mis (Cu), 2,34 % temir (Fe), 1,23 % volfram (W), 0,54 % nikel (Ni), 0,49 % rux (Zn), 0,43 % kalsiy (Ca), 0,41 % qo‘rg‘oshin (Pb) elementlaridan tashkil topgan¹. Tangadagi bezak va sulus hati (arab grafikasi)dagi yozuvning bir qismi o‘chib ketgan, bir qismi tangaga tushmagan (4-rasm).


Old tomoni. O‘rta qismidagi kvadrat shakldagi hoshiya ichiga arab harflari (suls xati)da “Amir Temur” nomi quyidagicha tushirilgan:

(o‘rta qismida)	
	(“Amir – أمير”)
	(“Temur – تیمور”);

kvadrat shakldagi hoshiyanins tashqi to‘rt tomoniga arab harflari (suls xati)da so‘z bilan tanganing zarb qilingan yili, ya‘ni “sana / yetti yuz / sakson / besh” yozuvi quyidagicha tushirilgan:

	(“sabeumo miya (etti yuz) – سبعمائة” – hoshiyaning chapida)
	(“samanun (sakson) – ثمانون” – hoshiyaning tagida)
	(“hamsa (besh) – خمسة” – hoshiyaning o‘ngida)
	(“sana (yil) – سنة” – hoshiyaning ustida)

Orqa tomoni. O‘rta qismidagi uchburchaksimon bezak ichiga tamg‘a – uchta halqa (°°), uchburchaksimon bezaklarning toshqi uch tomoniga arab harflari (suls xati)da tanganing zarb qilingan joyi, ya‘ni “zarb / Samar / qand” yozuvi quyidagicha tushirilgan:

	(“zarb (zarb qilindi) – ضرب”)
	(“Samar – سمر”)
	(“qand – قند”)

5-tur. Fulus. Hijriy 813 (milodiy 1410-1411)-yil Samarqandda zarb qilingan. Diametri – 17 mm, og‘irligi – 2.17 gr., tarkibi – 94,61 % mis (Cu), 1,42 % temir (Fe) elementlaridan tashkil topgan (5-rasm).



Old tomoni. Deyarli tekislanib ketgan.

¹ Tangalarning tarkibi O‘zMU Geologiya fakulteti laboratoriyasidagi uskuna yordamida aniqlandi.

Orqa tomoni. Novdali o'simliksimon bezak bilan o'ralgan, o'rtadan uchlari tashqari tomonga qarab cho'zilibgan bodomsimon bezak (tamg'a) tushirilgan.

6-tur. Nim dongi. Hijriy 814 (milodiy 1411-1412)-yil Samarqandda zarb qilingan. Diametri – 21x25 mm, og'irligi – 4.07 gr, metali – mis.

Old tomoni. Cheti aylanasi nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan o'ralgan. O'rta qismidagi uchburchaksimon hoshiya ichiga uchta halqa tushirilgan (°°). Hoshiyaning uch tomoniga arab harflari (suls xati)da tanganing zarb qilingan joyi, ya'ni “zarb / Samar / qand” yozuvi quyidagicha tushirilgan:

	(“zarb (zarb qilindi) – ضرب”)
	(“Samar – سمر”)
	(“qand – قند”)

Orqa tomoni. Cheti aylanasi nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan o'ralgan. O'rta qismiga old tomonidagi kabi uchburchak shakldagi hoshiya tushirilgan bo'lib, uning ichiga arab harflari(suls xati)da “adl nim dagy” yozuvi quyidagicha tushirilgan:

	(“nim – نیم”)
	(“dongy– داگی”)
	(“adl (zarb qilindi) – عدل”);

hoshiyaning atrofi bo'ylab uch tomoniga tanganing zarb qilingan yili arab harflari (suls xati)da so'z bilan yozilgan. Ulardan quyidagilar saqlangan:

7-tur. Hijriy 819 (milodiy 1416-1417)-yil zarb qilingan. Diametri – 22 mm, og'irligi – 3,99 gr, metali – mis.

Old tomoni. Tekislanib ketgan.

Orqa tomoni. Arab harflari (suls xati)da so'z bilan tanganing zarb qilingan hijriy yili pastdan tepaga qarab o'qilish tartibida tushirilgan. Ammo, yozuvlarning bir qismi tekislanib ketgan, bir qismi tangaga tushmay qolgan. Saqlangan “sakkiz yuz o'n to'qqiz” quyidagicha yozilgan:

	(“tisea (to'qqiz) – (تسع)”)
---	-----------------------------

	(“eashra (o‘n) – عشرة”)
	(“samāniya mia (sakkiz yuz) – ثمانمائة”).


8-tur. Fulus. Hijriy 823 (milodiy 1420-1421)-yil Samarqandda zarb qilingan. Diametri – 21 mm, og‘irligi – 4,49 gr, metali – mis (8-rasm).

Old tomoni. Markazida ikkita uchburchaklarning bir-biri bilan ustma-ust kesishishidan olti qirrali yulduzcha, uning o‘rtasida olti burchakli geometrik shakl, qirralarida yana oltita uchburchakchalar hosil qilingan. O‘rtasidagi olti burchakning o‘rtasiga bitta nuqtacha qo‘yilib, bu nuqtachadan olti burchakka tomon olti chiziqli tortilgan. Olti qirrali yulduzchaning qirralaridagi har bir uchburchaklarning o‘rtasida bittadan, jami oltita nuqtachalar bor. Olti yulduzchaning tashqarisi bo‘ylab aylanasi, oltita bo‘lmachasida arab harflari (suls xati)da yozuv yozilgan. Ammo, bu yozuvlar tangaga to‘liq tushmagan, tushganlari ham ancha o‘chib ketgan. Bu yozuvning grafik tiklanshi quyidagichaligini ko‘rsatdi:

	(ad – عد)
	(liya – لية)
	(zar – ضر)
	(b – ب)
	(samar – سمر)
	(qand – قند).

Orqa tomoni. Arab harflari (suls xati)da so‘z bilan tanganing zarb qilingan hijriy yili pastdan tepaga qarab o‘qilish tartibida tushirilgan. Ammo, yozuvlarning bir qismi tekislanib ketgan, bir qismi tangaga tushmay qolgan. Saqlangan “sakkiz yuz yigirma uch” quyidagicha yozilgan:

	(“salasa (uch) – ثلاثة”)
	(“eishrun (yigirma) – عشرون”)
	(“va – و”)



9-tur. noaniq. Diametri – 19 mm, og‘irligi – 3,26 gr, metali – mis. Har ikkala tomoni deyarli tekislanib ketgan. Orqa tomoniga qayta zarb urilgan. Qayta zarbda kvadrat-romb shakldagi hoshiya ichiga arab harflarida “xub (خوب)” yozuvi tushirilgan (9-rasm).

10-tur. Noaniq. Diametri – 18 mm, og‘irligi – 1,76 gr, metali – mis. Ikkala tomoni ham deyarli tekislanib ketgan (10-rasm).

11-tur. Noaniq. Diametri – 27 mm, og‘irligi – 3,46 gr, metali – mis. Ikkala tomoni ham deyarli tekislanib ketgan (10-rasm).

Shunday qilib, yuqorida tavsiflangan tangalar 11 turdagi tangalardan iborat. Bu tangalarga o‘xshash tanga turlari turli hududlardan topib o‘rganilgan. Ulardan 1-turdagi – 1085-yil zarb qilingan (1-rasm), o‘rtasi kvadrat teshikli bronza tanga hozirgi Xitoyning shimoliy hududlarida 960 va 1279-yillarda hukmronlik qilgan Song sulolasi davriga tegishli bo‘lib, u Shao Sheng (Chjezong) hukmronligi (1094–1098-yillar) paytida ishlab chiqarilgan [23; 28]. Ushbu tanganing Zarafshon daryosi havzasida joylashgan, hozirgi Samarqand viloyatining Jizmonsoy qishlog‘idan topilishi 11-asrdagi qoraxoniylar davlati tarkibida bo‘lgan ushbu hudud bilan Song sulolasi qo‘l ostida bo‘lgan hududlarda yashagan aholi o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlaridan xabar beradi.

2-turdagi – 1132-yilda Samarqandda zarb qilingan ko‘fiy (arab grafikasi) yozuvli tanda 9–12-asrlardagi islomiy davlatlarning tanga ishlab chiqarish an‘anasiga xos. Lekin, yuqorida tavsiflangan tanga juda kuchli yeyilgan va yozuvlari deyarli o‘qib bo‘lmas darajada tekislangan. Bunday tangalarga o‘xshash tangalar B.D.Kochnev, T.S.Yernazarova, M.N.Fedorov kabi tangashunoslar tomonidan o‘rganilgan [6; 17; 18]. Tanganing o‘rta yuzasidagi va bir tomonidagi aylanasi bo‘ylab yozilgan yozuvda “besh yuz (خمس مئة)” saqlanganligi uning qoraxoniylar davriga to‘g‘ri kelishini mumkinligini ko‘rsatdi (2-rasm). So‘ng uning o‘xshashlarini tadqiq qilish va qiyoslash ushbu turdagi tangalarda qanday yozuv tushirilganligini aniqlashga imkon bo‘ldi. Bu turdagi tangalar yuzasidan olib borilgan avvalgi tadqiqotlarga asoslanib, 2-turdagi tanganing zarb qilish texnikasi, tuzilishi va yozuvlarning tushirilishi qoraxoniylar sulolasining hukmronligi davrida Movarounnahr shaharlardan biri bo‘lgan Samarqanddagi zarbxonada zarb qilinganligini aytishga imkon berdi. Jumladan, aynan o‘xshash bo‘lgan tangaga qiyoslash orqali uni hijriy 526 (milodiy (1132)-yilda G‘arbiy Qoraxoniylar sulolasining Samarqanddagi hukmdori Qodirxon Ahmad ibn Muhammad ibn Sulaymonning (taxminan 1129–1132-yillar) hukmronlik yillariga mansubligi aniqlandi [45]. O‘z davrida muomalada bo‘lgan bu tanga misdan yasalgan bo‘lsa-da, o‘sha paytdagi mis tanqisligi tufayli unga “dirham” deb yozdirilgan va u shu vazifasini bajargan. Tangadagi ip o‘tkazib taqib yurishga mo‘ljallab teshilgan teshigiga qaraganda keyinchalik taqinchoq sifatida taqib yurilgan, deyish mumkin. Islom an‘anasida bu kabi “Alloh va Muhammad s.v. payg‘ambar”ning nomi

yozilgan tanga yoki buyumlar muqaddas hisoblangan. Shu sababli ular muomaladan chiqarilsa-da, keyinchalik ipga tizib taqib yurilgan.

Yuqoridagi tavsifdan 3-tanga ya'ni, Oltin O'rta xoni Jonibek hukmronligi davrida (1342–1357-yillar) hijriy 754 (milodiy 1353–1354)-yil Xorazmda zarb qilingan tanga “pul” deb yuritilgan. Bundan tangalar P.S.Savelev [13], A.Makvov [9], G.A.Fedorov – Davidovlar tomonidan tadqiq qilingan [15]. Ularning bir qancha nusxasi “Zeno.ru” va “en.numista.com” elektron-onlayn platformalariga ham joylashtirilgan [24]. G.A.Fedorov – Davidov bu turdagi tangalarning bezaklari o'xshashligini qayd qilib, ularning orqa tomonidagi yurayotgan sherning chapdan ko'rinishi tushirilgan tasvirga o'xshash rasmlar Jo'chi va uning sulolasi qo'l ostiga kirgan turli shaharlarida, shuningdek, Saljuqiylar (1038–1308-yillar), Hulokuiylar (1256–1353-yillar), Boburiylar (1526–1858-yillar), fors shohlari tangalarida aks ettirilganligi, Xorazmda bu tangalarning o'ngga yurayotgan sher tasvirli nusxalari ham bir paytning o'zida muomalaga chiqarilganligi aniqlangan [15]. Xorazmning bunday sher tasvirli tangalari hijriy 741–757 (milodiy 1340–1356)-yillarda zarb qilingan bo'lib [31; 32], ularning namunalari Qirim hududlaridan ham topilgan [22]. Qayd qilish kerakki, Oltin O'rdada tanga-pul barqarorligi ta'minlangan davrlardan biri Jonibek (1342–1357) hukmronlik qilgan paytga to'g'ri keldi. Ushbu masala bilan shug'ullangan G.A.Fedorov-Davidovga ko'ra, bu pul 1 dinorning beshdan biriga (1 “Tassuj” – dinorning beshdan biri) [15], 40 pul 1 dirhamga teng bo'lgan [16]. Ularga sher tasvirining tushirilganligi qiziqarli bo'lib, sher turkiy-mo'g'ul, forsiy va islomiy an'analarda hukmdorlik, hokimiyat va kuch-qudrat ramzi hisoblanadi. Jumladan, “sher va quyosh” motivi Eron mintaqasida keng tarqalgan. Shulardan kelib chiqib, Oltin O'rta xoni Jonibek o'zini mustaqil va qudratli hukmdor sifatida ko'rsatgan siyosiy legitimlik timsoli ekanligi aytish mumkin.

4-turdagi ya'ni, Samarqand zarbxonasida hijriy 785 (milodiy 1383-1384)-yil Amir Temur nomi va uchta halqa–tamg'a tushirilib muomalaga chiqarilgan mis tanga – fuluslarning ko'plab nusxalari topilgan. Jumladan, hozirgi O'zbekistonning Samarqand shahri, Yakkabog' tumani [10], Termiz shahridan [11], Qirg'iz Respublikasi, Jalolobod tumani, Aksi tumani, Panfilov tumani (Chu viloyati)dan [19], Tojikistonning Xuttalon viloyati, Dang'ara tumani (Itarka qishlog'i)dan [3], Rossiyaning Astraxan shahridan [1] topilgan. Ma'lumki, Amir Temur hokimiyatni ma'lum vaqt Chig'atoy avlodlaridan bo'lgan “qo'g'irchoq xon” – Suyurg'atmish (1370–1388), so'ng uning o'g'li Mahmudxon (1388–1402)lar nomi bilan boshqargan, mis va oltin tangalarda ularning nomi bilan o'z nomini birga tushirtirgan [14]. Amalda esa mutlaq boshqaruvni o'zi amalga oshirar edi. Amir Temur o'zining birinchi tangalarini hijriy 774 (milodiy 1372-1373)-yil Chig'atoy xonlarining namunasi asosida zarb qilgan bo'lsa, 1380-yillardagi pul islohotidan so'ng yangi shakldagi tangalarni o'z nomi bilan zarb qildirgan.

Amir Temurning “uch halqa” – tamg'asi hijriy 783–787 (milodiy 1381–1385)-yillarda Samarqandda zarb qilingan ko'plab mis tanga – fuluslarda tushirilgan [19; 20]. Samarqanddan tashqari, Xorazmda, Xuroson, Eron, Iroq va Ozarboyjon hududlarida, chunonchi, Astrobod, Astora (Ashpara), Bak-u, Balx, Bag'dod, Barsa, Bomiyon, Hirot, Domg'on, Darban, Yazd, Isfahon, Koshon, Kermon, Qum, Qarshi,

Mordin, Sova, Sultoniya, Tabriz, Xoy, Shabonkora, Sheroz, Shemaxa, Mahmudobod, Mashhad, Bidlis, Vastan, Selmas va boshqa shaharlardagi 40 – 50 ta zarbxonada turli yillarda Amir Temurning nomi tushirilib tangalar zarb qilingan [11; 14]. Hatto, mustaqil bo'lgan Hindiston, Turkiya, Misr va Shom podshohlari ham Amir Temur nomi bilan tilla va kumush tangalar zarb qildirganlar [14]. Ushbu tangalar orasida Samarqandning uch halqa – tamg'ali mis tangalari boshqa mis tangalardan ko'ra kengroq tarqalgan.

Amir Temurning oltin va kumushdan yasalgan va uch halqa – tamg'ali tushirilgan tangalarning old tomoni o'rta qismiga “La ilaha illallohu Muhammadur rasululloh” degan iymon, to'rt burchagiga esa to'rt xalifa – Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilarning nomlarini, orqasiga esa “Suyurg'atmishxon yorlig'i Amir Temur Ko'ragon akmonu” deb yozilgan. Jumladan, Samarqandda hijriy 782–788 (milodiy 1380–1386)-yillarda zarb qilingan kumush “miri”larda ham Suyurg'atmishxon va Amir Temur nomi yozilgan [14]. Mis tangalarda esa birgina “Amir Temur” nomi tushirilgan [14]. E'tiborli jihat shundaki, Amir Temur bevosita Chingizxon avlodidan bo'lmagani uchun tangalarda uning ismiga “amir” yoki “ko'ragon (mo'g'ilcha – kuyov)” so'zi tushirilgan.

Amir Temur tangalaridagi uchta halqa – tamg'a doimo qiziqarli bo'lib kelgan. Ayrim tadqiqotchilar mazkur tamg'a ho'kiz boshining ramzi ekanligi, ho'kiz boshining faqat ikki ko'zi bilan og'zi tasvirlanganligini xato taxmin qiladilar [14]. Amir Temurning uchta doiradan iborat bo'lgan bunday tamg'asining tavsifi birinchi marta 1404-yilda Samarqandga, Amir Temur saroyiga kelgan Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixoning sayohat kundaligida keltirilgan. U Amir Temurning Samarqanddagi saroyiga kirishda tillo rangdagi uch halqa borligini qayd qilgan [2]. Halqalar xuddi tangalardagidek tartibda joylashgan bo'lgan [2; 12]. Ibn Arabshoh esa Amir Temurning bayrog'ida, tug'ida, otlarida, tangalarda, tillo zeb-ziynatlarda uch halqadan iborat tamg'a bo'lganligi haqida ma'lumot yozib qoldirgan [7]. “O – halqa” shaklidagi uch doirachalardan tashkil topgan bu tamg'alar Amir Temur davlatning ramziy belgisi – gerbi bo'lib, u “Temur – uch iqlimning hukmdori”, degan ma'noni anglatgan.

Amir Temurning hijriy 783 (milodiy 1381–1382) yilda Xorazmda zarb qilingan tangasining bir tomoniga uchta halqadan tashqari, halqalarning uning tagidan sherning o'ng tomondan ko'rinishi tasvirlangan [20]. Ma'lumki, islom dinida jonzotlarni muqaddaslashtirish, ularning tasviridan foydalanish salbiy qaraladi. Hayvonot olamining qiroli sifatida talqin qilinadigan sherning Amir Temur tangalarida tushirilishi uning tolerantligidan dalolat beradi.

Amir Temur tangalardan oldin zarb qilingan tangalarda ham uchta halqani kuzatish mumkin. Jumladan, ular kelib chiqishi turkiylardan bo'lgan qoraxoniylar sulolasi vakili Nasr Ibrohim o'g'lining hijriy 460 (milodiy 1067-1068), 466 (milodiy 1073-1074)-yillarda Buxoroda zarb qilingan fulus – mis tangasida [34; 38; 43], Mas'ud Hasan o'g'lining hijriy 560 (milodiy 1164-1165) Samarqandda zarb qilingan fulus – mis tangasida [39], Arslonxon Ibrohim Husayn o'g'lining hijriy 559 (1163-1164)-yilda Uzgandda zarb qilingan dirhamlarida [40], yana bir turkiy sulola Saljuqiylarning vakili Alp Arslon nomining hijriy 465 (milodiy 1072-1073)-yilda Nishopurda zarb qilingan dirham – oltin tangasida [21] va boshqalarda

uchraydi. Qolaversa, tangalarda halqa oʻrnida boʻrtib chiqqan va alohida koʻzga tashlanadigan uchta nuqtachalar ham tushirilgan. Bularga somoniylar sulolasi vakillaridan Yahyo Asad oʻgʻlining Shosh – Toshkentda zarb qilingan mis tangalari [20], qoraxoniylardan Nasr Ibrohim oʻgʻlining hijriy 465 (milodiy 1072-1073)-yilda, Tabgʻachxon Muhmudning hijriy 490 (milodiy 1096-1097)-yilda Buxoroda zarb qilingan fulus – mis tangalari [41; 44], Imadiddin Tabgʻachxon Muhammad Takash oʻgʻlining hijriy 610 (milodiy 1210)-yilda Vaxshda zarb qildirgan dinorlari [44], saljuqiylar sulolasi vakillaridan Kirmon hukumdorlaridan biri boʻlgan Qara Arslon Bek nomi tushirilib hijriy 462 (milodiy 1069-1070)-yilda zarb qilingan dirhamlari [21], Chingiziylardan Munkaxonning (hijriy 649-658, milodiy 1251-1260-yillar orasida) dirhamlari [35], Xorazmdagi qoʻngʻirot soʻfilarining hijriy 779 (milodiy 1377-1378)-yilda zarb qilingan mis tangalari [33] bunga misol boʻla oladi. Ammo, bu tangalardagi uchta halqachalar va nuqtachalar ancha kichik hajmda tushirilgan.

Amir Temurning uch halqa – tamgʻasi uning oʻgʻli Shohrux va nabirasi Ulugʻbek hukmronligi davrida urugʻ tamgʻasi sifatida qaralib, kumush va mis tangalarga tushirilgan. Temuriy shahzodalarning 15-asrning oxirlarida Samarqand va Buxoroda zarb qildirgan mis tanglari oʻrta qismiga arab harfidagi yozuvning “sh (ش)” harfi ustiga qoʻyiladigan nuqtachalari uchta halqa koʻrinishida tushirilganligini ham kuzatish mumkin [36; 37]. Undan keyingi tangalarda Amir Temurning davlat ramziga aylantirgan bunday tamgʻani tushirish anʼana yoʻq boʻlib ketgan.

Amir Temur tangalarida arabcha, forsha, moʻgʻulcha soʻzlar bilan birga turkcha soʻzlar ham qoʻllanilgan. Masalan: arabchadagi kalimalar, forshadagi “zarb”, moʻgʻulchadagi “koʻragon (kuyov)” soʻzlari qatorida turkiydagi “soʻzim”, “yorligʻi” singari soʻzlarni uchratamiz. bu orqali Amir Temurning ilgari anʼana sifatida qoʻllanib kelingan soʻzlarga qoʻshimcha turkiy soʻzlarning qoʻllanishi anʼanasiga tamal qoʻydi.

Yuqorida tavsiflangan, hijriy 813 (milodiy 1410-1411)-yilda zarb qilingan 5-tanga va 814 (milodiy 1411-1412)-yilda zarb qilingan 6-tangalar ham Amir Temurning mis tangalarni zarb qilish anʼanasida ishlab chiqarilgan. Qayd qilish kerakki, ulardagi yozuv va bezaklarning bir qismi oʻchib ketgan, bir qismi tangaga tushmagan boʻlsa-da, oʻxshashlarini oʻrganish, bu tangani grafik tiklash ularning chetlari aylanasi nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan oʻralganligini aytishga imkon berdi (5–6-rasmlar). Jumladan, yuqorida tavsiflangan, 6-tanga yaʼni, hijriy 814 (milodiy 1411-1412)-yilda zarb qilingan tangalarning nusxalari hijriy 815 (milodiy 1412-1413)-yilda ham zarb qilinganligini koʻrsatdi. Ammo, Ye.A.Davidovich ushbu turdagi tangani hijriy 819 (milodiy 1416-1417)-yilda zarb qilingan boʻlishi mumkinligini qayd qilgan [3]. Yuqorida tavsiflangan tangada arabcha soʻz bilan “sakkiz yuz oʻn toʻrt (samanimiayat a'arbaeat eashar)” yozilganligi koʻrinib turibdi. Bu turdagi tangalar “Nim dangi (1/2 dangi)” hisoblanadi [3]. U Amir Temurning kenja oʻgʻli Shohrux Mirzo (hukmronligi 1405–1447-yillar) paytida zarb qilingan. Bunday kichik qiymatli mis tanga savdo va kundalik muomalada ishlatilgan.

Hijriy 819 (milodiy 1416–1417)-yil zarb qilingan 7-turdagi tangaga o'xshash tangalar qisman topib o'rganilgan bo'lsa-da [42], ularning birortasida ham na yozuvlar, na bezaklar yaxshi saqlanmagan. Shu sababli ularning to'liq grafik tiklashning imkoni bo'lmadi. Saqlangan ayrim yozuv va bezaklarning qiyosiy tahlili ularning har ikkala tomoning chetlari bo'ylab aylanasi nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan o'ralganligini ko'rsatdi. Odatda bu turdagi tangalarning old tomonining o'rta qismidagi hoshiyasining to'rt yoni to'liqsimon va to'rt uchi tashqarisida to'rsimon bezak bilan tutashib ketganligi, hoshiya ichiga arab yozuvidagi yozuv tushirilganligi, hoshiyaning to'rt tomoniga tanganing zarb qilingan joyi tushirilganligi ma'lum bo'ldi. O'rganilgan bu turdagi tangalar Samarqandda zarb qilingan. Tanganing orqa tomoniga esa arab harflarida so'z bilan uning zarb qilingan “sakkiz yuz o'n sakkizinchi yil (سنة ثمانمائة وتسع عشر)” tushirilgan. Ma'lumki, hijriy 819 (milodiy 1416–1417) yil Temuriy shahzoda Mirzo Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay Shohrux o'g'li)ning Samarqand hokimligi davriga to'g'ri keladi. 1409-yilda (hijriy 812-yil atrofida) otasi Shohrux Mirzo uni Movarounnahr (Markaziy Osiyoning asosiy qismi) va Samarqand hokimi etib tayinlagan edi. Shundan kelib chiqib, muhokama qilinayotgan tanganing Mirzo Ulug'bekning tanga-pul islohotlari natijasida mahalliy savdo-sotiq uchun muomalaga chiqarilganligini aytish mumkin.

6 burchakli “Sulaymon yulduzi” ichidagi chiziqli yulduzcha shaklidagi bezakli 8-tangalarning namunalari yaxshi tadqiq qilingan. Bu turdagi tangalar Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi Alisher Navoiy mahallasidan [25; 26; 27; 29], Qirg'iz Respublikasi Jalolobod viloyati Suzak qishlog'idan, Tojikistoning Dushanbe shahridan [4] va boshqa joylardan topilgan. Ulug'bekning tanga-pul islohotlaridan so'ng shunday bir xil bezakli tangalarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan edi [5]. Ushbu tangalar bir paytning o'zida ya'ni, hijriy 823 (milodiy 1420)-yilda Samarqanddan tashqari Buxoro, Qarshi, Termiz, Shahrisabz, Shohruxiya kabi shaharlarda zarb qilingan [4].

Afsuski, 9–11-tangalardagi bezak va yozuvlar deyarli tekislanib ketgan (9–11-rasmlar). Shu sababli ularning qayerda va qachon zarb qilinganligini aniqlashning imkoni bo'lmadi. Ularni qiyosiy o'rganishga urinish ham samara bermadi. Balki kelgusidagi tadqiqotlarda bu masalaga oydinlik kiritishga imkon bo'lar. Faqatgina, 8-tangaga kvadrat shakldagi hoshiya ichiga arab harflarida “xub (خوب)” yozuvi tushirilgan qayta zarb urilgani aniqlandi (9-rasm). Tangaga tushirilgan forscha “xub (خوب)” – “yaxshi”, “sifatli”, “qonuniy” yoki “yaroqli” degan ma'noni bildiradi. Bu belgi tanganing haqiqiy ekanligini tasdiqlovchi belgi sifatida ishlatilgan. Bu amaliyot Markaziy Osiyo va Eron hududlarida keng tarqalgan edi. 9-tangadagi qayta zarbni Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrdagi mis tangalar taqchilligini bartaraf etish uchun qayta urdirilib muomalaga chiqarilganligini aytish mumkin. Ye.A.Davidovich bunday kvadrat-romb ichiga “xub” yozuvi tushirilgan qayta zarblar Movarounnahrning markaziy qismidagi shahar zarbxonalarida urilganligini qayd qilgan [3].

XULOSA



Xullas, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani “Jizmonsay” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan topilgan 11 dona tanga Markaziy Osiyo numizmatikasi va iqtisodiy tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu majmua turli davrlarga oid tangalarni o‘z ichiga olib, G‘arbiy Qoraxoniylar (XI asr), Oltin O‘rda (XIV asr), Amir Temur va Temuriylar (XIV–XV asrlar) hamda Shayboniylar davri pul muomalasi va tanga zarb qilish siyosatini yoritadi. Topilmalar orasida Shimoliy Song sulolasi (Xitoy) tangasi mavjudligi “Jizmonsay” aholisining Buyuk Ipak yo‘li orqali uzoq mintaqalar, xususan, Shimoliy Xitoy bilan savdo aloqalari rivojlanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, hijriy 526-yilda Samarqandda zarb qilingan Qoraxoniylar dirhami, Xorazmda Jonibekxon davrida chiqarilgan tanga, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Shayboniyxon davridagi tangalar mintaqada amalga oshirilgan pul islohotlari, tanga tanqisligini bartaraf etish choralari va iqtisodiy-siyosiy munosabatlarni chuqur o‘rganishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari Samarqand viloyati, xususan, Jizmonsoy hududida 11–16-asrlardagi pul muomalasining uzluksizligini, savdo yo‘llari faolligini va turli sulolalar tanga zarb siyosatidagi o‘xshashlik hamda farqlarni kuzatish imkonini berdi. Topilgan artefaktlarning bir qismi davlat muzeylariga topshirilgani ularni kelgusida chuqurroq ilmiy tadqiq qilish va ommaviy ko‘rgazmalarga qo‘yish uchun qulay sharoit yaratdi. Umuman olganda, “Jizmonsay” topilmalari Markaziy Osiyo iqtisodiy tarixi va numizmatikasini boyituvchi qimmatli manba bo‘lib, mintaqa arxeologik va numizmatik tadqiqotlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI



1. Брагин А.О. Находки монет Амира Тимура и Тимуридов на территории Золотой Орды // Нумизматика Золотой Орды. – № 5. – Казань, 2015. – С. 67–79.
2. Гонсалес Руи Де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403–1406). Масъул муҳаррир: Муҳаммад Али; сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М. Сафаров; тарж. О. Тоғаев. – Тошкент: O‘zbekiston, 2010. 90–92, 148, 162–163, 164, 173, 182, 186, 188–189-бетлар.
3. Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV– первой четверти XVI в. в Мавераннахре). – Москва, 1983. – С. 70, 131, 201.
4. Давидович Е.А. Клады древних и средневековых монет Таджикистана. – Москва: Наука, 1979.
5. Давидович Е.А. Материалы для характеристики денежной реформы Улугбека // Из истории эпохи Улугбека. – Ташкент, 1965. – С. 274–299.
6. Ерназарова Т.С., Кочнев Б.Д. Монетные находки с Кендыктепе // Древности Туябугуза. – Ташкент, 1976. – С. 138–139.
7. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 2-китоб. – Тошкент: Меҳнат, 1992. 65-бет.



8. Кочнев Б.Д. Нумизматическая история караханидского каганата (991 – 1209 гг.). Часть I. Источниковедческое исследование. – София, 2006. – 344 стр.
9. Марков А.К. Инвентарный каталог мусульманских монет императорского Эрмитажа. – Санкт-Петербург, 1896. – С. 458–459. № 418, 459, 430.
10. Нормуродов Д., Мейлиев И. Яккабоғдаги Амир Муҳаммад (барлослар) макбараси. – Тошкент, 2023. 22-бет.
11. Ртвеладзе Э.В. Термезский клад монет Тимура и Халил Султана // ОНУ. 1969. – № 8–9. – С. 95–98.
12. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). – Москва, 1990. – С. 103.
13. Савельев П.С. Монеты джучидскія, джагатайскія, джелаиридскія и другія, обращавшіяся в Золотой Орде в эпоху Токтамышя (с 10-ю таблицами рисунковъ) // Записки Императорскаго. Археологическаго общества. – Санкт-Петербург, 1865. Том. 12. – С. 285.
14. Тўхтиев И. Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиёсати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. 8–9, 18, 20, 30, 40, 42, 44, 46-бетлар.
15. Федоров – Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма Золотоордынского периода // Нумизматика и эпиграфика. – Москва: Наука, 1965. – № 5. – С. 190–202.
16. Федоров – Давыдов Г.А. Монетная система Хорезма XIV в. // СА. – Москва: Наука, 1957. № 2. – С. 245.
17. Федоров – Давыдов Г.А. Монеты – свидетели прошлого // Популярная нумизматика. – Москва, 1985. – С. 84–93.
18. Федоров М.Н. Караханидская нумизматика как источник по истории Средней Азии конца X — начала XIII вв. автореф дисс. на соис. док. истю наук. – Новосибирск, 1990. – С. 11.
19. Френ Х.М. Монеты ханов улуса Джучиева или Золотой Орды с монетами различных мухаммеданских династий. – Санкт-Петербург, 1832. – С. 62. – № 443. – Табл. XV. – Рис. 1, 3, 5.
20. Харитонов В.И. О некоторых медных монетах Хорезма 80–90-х гг. XIV в. // Нумизматические чтения государственного исторического музея: 2016 года. Материалы докладов и сообщений. – Москва, 2016. – С. 65–69. – Рис. 2, 3, 4, 5, 7.
21. Catalogue of oriental coins in the British Museum. – Vol. III. – London: Printed by order of the trustees, 1877. – Pp. 30, 38. – PL. II. № 60, № 75.
22. <https://coins.ucoz.ru/index/0-38>
23. https://en.numista.com/30269#:~:text=Table_title:%20Features%20Table_content:%20header:%20%7C%20Issuer%20%7C,%7C%20Empire%20of%20China:%20%20Cash%20%7C
24. <https://numista.com/332559>
25. <https://sputniknews.uz/20220309/sarosiyoda-ulugbek-xazinasini-topildi-23219055.html>
26. https://t.me/AOKA_Surxondaryo/1567



27. <https://uza.uz/en/photo-bank/90661>
28. https://www.calgarycoin.com/reference/china/china5.htm?utm_source=ch
atgpt.com № S-582
29. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/03/07/coin/>
30. <https://www.zeno.ru/showgallery.php?cat=3129&page=1>
31. <https://www.zeno.ru/showgallery.php?cat=9849>
32. <https://www.zeno.ru/showgallery.php?cat=9874>
33. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=119586>
34. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=16104>
35. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=176070&cat=9877&ppuser=&sortby=d&way=desc>
36. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=337042&cat=21831&ppuser=&sortby=d&way=desc>
37. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=181154>
38. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=196858>
39. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=208623>
40. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=317930&cat=6364&ppuser=&sortby=d&way=desc>
41. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=35473>
42. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=362742>
43. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=37888>
44. <https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=64761>
45. [#303609 - Samarqand, 526 AH, Qarakhanid AE dirhem with sword and halberd](#)

		
1-rasm. 1085-yil. Shimoliy Xitoydagi Song (960–1279-yillar) sulolasi. Bronza.		2-rasm. Dirham. Hijriy 526 (milodiy 1132)-yil. Samarqand. Mis.

	
3-rasm. Pul. Hijriy 754 (milodiy 1353–1354)-yil. Xorazm. Mis.	4-rasm. Fulus. Hijriy 785 (milodiy 1383–1384)-yil. Samarqand. Mis.

	
5-rasm. Fulus. Hijriy 813 (milodiy 1410–1411)-yil. Samarqand. Mis.	6-rasm. Nim dongi. Hijriy 814 (milodiy 1411–1412)-yil. Samarqand. Mis.

	
7-rasm. Hijriy 819 (milodiy 1416–1417)-yil. Mis.	8-rasm. Hijriy 823 (milodiy 1420) yil. Samarqand. 6 burchakli “Sulaymon yulduzi” shaklidagi bezakli. Mis.

	
9-rasm. Mis.	10-rasm. Mis.

	11-rasm. Mis.
---	----------------------

Нормуродов Д.Р.

PhD., доцент кафедры «Археологии и этнологии»

Национальный университет Узбекистана

d.r.normurodov@mail.ru

О МОНЕТАХ, ОБНАРУЖЕННЫХ НА ТЕРРИТОРИИ М.Ф.И. “ЖИЗМОНСОЙ” КАТА-КУРГАНСКОГО РАЙОНА САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена описанию и научному анализу 11 монет, найденных на территории махаллинского схода граждан «Джизмонсай» Каттакурганского района Самаркандской области. В составе монетного комплекса представлены экземпляры различных исторических периодов и монетных дворов. Одна из них отчеканена в 1085 году династией Северная Сун (960–1279 гг.) в Китае. Остальные монеты выпущены в следующие годы: 526 г. хиджры (1132 г.) в Самарканде, 754 г. хиджры (1353–1354 гг.) в Хорезме, 785 г. хиджры (1383–1384 гг.) в Самарканде, 813 г. хиджры (1410–1411 гг.) в Самарканде, 819 г. хиджры (1416–1417 гг.) и 823 г. хиджры (1420–1421 гг.) в Самарканде. Точную дату и место чеканки трех монет установить не удалось. Данный нумизматический материал является важным источником для изучения традиций чеканки монет в период правления династии Караханидов на территории Самаркандской области, торгово-экономических связей местного населения с империей Северная Сун, денежной политики золотоордынского хана Джанибека, реформ монетного дела при Амире Темуре и Тимуридах (в частности, Шахрухе Мирзе и Мирзо Улугбеке), а также денежных реформ Мухаммада Шайбанихана, направленных на преодоление дефицита монет. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию истории денежного обращения в Центральной Азии, межгосударственных торговых связей, преемственности и изменений в монетной политике.

Ключевые слова: Самарканд, Джизмонсай, Джанибек, Амир Тимур, Шахрух Мирза, Мирзо Улугбек, монета, медь, фулус, год хиджрий.

Normurodov D. R.

PhD., associate professor at the department of «Archeology and ethnology»

National university of Uzbekistan

d.r.normurodov@mail.ru

**ON THE COINS DISCOVERED IN THE “JIZMONSOY” MAHALLA
CITIZEN ASSEMBLY, KATTAKURGAN DISTRICT, SAMARKAND
REGION**

ABSTRACT

The article is devoted to the description and scientific analysis of 11 coins discovered in the “Jizmonsoy” Mahalla Citizens’ Assembly territory of Kattakurgan District, Samarqand Region. The coin assemblage contains specimens from various historical periods and mints. One of them was struck in 1085 by the Northern Song Dynasty (960–1279) in China. The remaining coins were minted in the following years: 526 AH (1132 AD) in Samarqand, 754 AH (1353–1354 AD) in Khwarezm, 785 AH (1383–1384 AD) in Samarqand, 813 AH (1410–1411 AD) in Samarqand, 819 AH (1416–1417 AD), and 823 AH (1420–1421 AD) in Samarqand. The exact minting date and place of three coins could not be determined. This numismatic material serves as an important source for studying coin minting traditions during the Qarakhanid period in the Samarqand region, trade and economic relations between the local population and the Northern Song Empire, monetary policy under the Golden Horde Khan Jonibek, coinage reforms during the reign of Amir Timur and the Timurids (particularly Shahrukh Mirza and Mirzo Ulughbek), as well as the monetary reforms carried out by Muhammad Shaybani Khan to overcome the shortage of coins. The research results contribute to a deeper understanding of the history of monetary circulation in Central Asia, inter-state trade relations, and the continuity and changes in coinage policy.

Key words: Samarqand, Jizmonsay, Jonibek, Amir Timur, Shahrukh Mirza, Mirzo Ulughbek, coin, copper, fulus, Hijri year.